



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 25-may, shanba,
62 (23.939)-son

**KUN
HIKMATI**

Haqiqat
bahslarda
tug'ildi. Ammo
noxolis tortishuv
uni turli tomonga
egadi

Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz



Sankt – Peterburg bilan hamkorlik mustahkamlanadi

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov Rossiya Federatsiyasi Sankt-Peterburg shahrida bo'lib, gubernator Aleksandr Beglov bilan uchrashdi.

Uchrashuvda madaniy-insonparvarlik, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash masalalari muhokama etildi. Muzokaralar davomida madaniyat, san'at, kadrlar tayyorlash va almashinuvini tashkil etish, farmatsevtika, elektrotexnika, metallurgiya va AKT sohalarida hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari belgilab olindi. Shuningdek, uchrashuvda

joriy yilning 28-iyun kuni Rossiya Federatsiyasining shimoliy poytaxtida o'tkaziladigan «Aliye paras» tadbirida viloyatimizning 15 nafar a'lochi maktab bitiruvchilari ishtirok etishi ma'lum qilindi. Yakunda Sankt-Peterburg shahri va Samarqand viloyati o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish va muvofiqlashtirish bo'yicha alohida ishchi guruh tuzilishi hamda ikkala hududda biznes forumlar o'tkazilishi belgilandi.

Rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga kelgan Turkiya Respublikasi Buyuk Millat Majlisi raisi Numan Kurtulmush boshchiligidagi delegatsiya 23-may kuni Samarqandda bo'ldi.

Mehmonlarni Samarqand xalqaro aeroportida Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi mas'ullari, viloyat hokimligi vakillari kutib oldi. Turkiya Buyuk Millat Majlisi raisi viloyatimizdagi muqaddas qadamjolar, tarixiy-madaniy yodgorliklarni ziyorat qildi. — Turkiya va O'zbekiston orasida bir necha ming kilometr masofa bo'lsa-da, tariximiz, madaniyatimiz, qalbimiz mushtarak, — dedi Turkiya Respublikasi Buyuk Millat

Numan Kurtulmush:

Tariximiz, madaniyatimiz, qalbimiz mushtarak

Majlisi raisi Numan Kurtulmush. — O'zbekistonni ota yurtimiz deb bilamiz va bu zaminga kelishdan faxr-iftixor tuyamiz. Davlatlarimiz rahbarlarining yaqin do'stligi, oqilona siyosati tufayli keyingi yillarda bu yaqinlik yana ham mustahkamlandi. Hozirda savdo-iqtisodiy soha deysizmi yoki madaniy-insonparvarlik, turizm, ilm-fan bo'yicha aloqalarimiz kengayib bormoqda. Kecha Prezident Shavkat Mirziyoyev hamda O'zbekiston parlamenti rahbarlari bilan uchrashuvlarimizda Turkiya Buyuk Millat Majlisi ham o'zaro



hamkorlikni yanada rivojlantirishga hissa qo'shishini bildirdik. Bugun Samarqanddagi muqaddas qadamjolar, tarixiy obidalarni ziyorat qilib, O'zbekistonning qadimiy va boy madaniyatga, ajdodlardan qolgan ulkan ma'naviy merosga ega ekanligiga amin bo'ldik.

2194 nafar bitiruvchi oltin medal oladi

2023-2024-o'quv yilida viloyatdagi umumta'lim maktablarining 9-sinfini 71021 nafar, 11-sinfini 48779 nafar o'quvchi bitiradi.

O'quv yili yakuni bilan 11-sinf bitiruvchilariga 318 ta kumush va 2194 ta oltin medal berilishi kutilmoqda. Bitiruvchilarning 2300 nafari muddatdan oldin chet davlatlarning nufuzli oliygohlarida o'qish huquqini qo'lga kiritgan bo'lsa, 1512 nafari IELTS, 1830 nafari SEFR va 362 nafari milliy sertifikatlar olishga erishdi. Shuningdek, yakunlanayotgan o'quv yilida viloyatdagi professional ta'lim muassasalarini 21110 nafar, oliy ta'lim muassasalarini 18367 nafar talaba bitirmoqda.

Hoynahoy ularning ikkalasi ham uyidan onalarining duosini olib chiqishgan. Biri o'qishga, biri esa ishga. Ikkinchisi ham hayotdan umidlari katta bo'lgan. Biri oilali, ikkinchisi uylanishga-da ulgurmagani. Ular tunda, atigi bir soniyagagina nigohlari bilan uchrashdi. Oqibatda biri halok bo'ldi, ikkinchisi esa... Onalar qon yig'lagan mash'um tun.

Samarqand shahridagi universitet xiyobonida sodir bo'lgan yo'l transport hodisasida Samarqand davlat universitetining talabasi vafot etganligi haqida xabar tarqaldi. Tasdiqlanmagan ma'lumotlarga ko'ra, piyodalar yo'lagidan o'tayotgan talabani shu ko'chada poyga o'ynagan mashinalardan biri urib ketgan. Bir necha lahzalik shuhrat istab, ajalning ortidan quvgan haydovchi navqiron bir yigitning hayotiga zomin bo'ldi. Afsuski, bu birgina holat emas. Ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda viloyatimizda 1151 ta yo'l-transport hodisasi qayd etilgan. O'lim bilan bog'liq YTHlari 265 ta, ularda tan jarohati olganlari soni 974 nafarni tashkil etadi. Shundan bolalar ishtirokidagi YTHlari soni 198 ta bo'lib, 31 nafar bola halok bo'lgan.

Ajalning ortidan quvayotganlar yoxud o'zimiz pishirgan osh...

Tahlillar bo'yicha sodir etilgan yo'l-transport hodisalarining 526 tasi piyodalarni urib yuborish, 364 tasi to'qnashuv, 93 tasi velosipedchini urib yuborish bilan bog'liq. Nazorat tadbirlari davomida 4218 holatda haydovchining spirtli ichimlik iste'mol qilib rulgaga o'tirgani aniqlangan. Aslida bu raqamlar viloyatimizdagi asl vaziyatni ochib bermaydi. Barchamiz, xoh piyoda, xoh haydovchi bo'laylik, har kuni yo'l harakati qatnashchisi sifatida o'nlab, gohida yuzlab vaziyatda yo'l harakati qoidalarining qo'pol ravishda buzilishiga guvoh bo'lyapmiz. Xo'sh, ularning nechtasi ayni statistikaga kiritilgan. Bilamizki, "GAI" xodimlari, kameralar yo'q ko'chalarda qoidalariga ham amal qilinmaydi. Aksariyat haydovchilar na svetoforning qizil chirog'ini, na yo'l belgilarini pisand qiladi. Ijtimoiy tarmoqda yuqoridagi musibatli holat yuzasidan turli fikrlar bildirilmoqda. Kimdir nazorat yo'q, huquqni muhofaza qiluvchi organlar ishlamayapti desa, yana kimdir bu tartibsizliklarga jamiyatda ma'lum bir mavqega ega insonlarning qonunni pisand qilmasligi sabab deydi.

Mulohaza yuritib ko'radigan bo'lsak, o'sha ishora qilinayotgan davlat idorasi-dagilar ham, ularning "erkatoy"lari ham shu jamiyatdan, oramizdan chiqayotganini anglash qiyin emas. Nega qoidabuzarlarni qarindoshlari tartibga chaqirmaydi, ayblab chiqmaydi, bilasizmi? Chunki bu ularning manfaatiga zid. Ularning o'rnida siz bo'lganingizda, aytaylik, o'sha shovq haydovchi yaqin qarindoshingiz bo'lganida nima qilardingiz? O'zimizni aldamaylik. Mansab, boylik insonni buzmaydi, ular faqat imkoniyatlarni oshiradi. Ko'chada "inomarka" mingan ham, "Damas" mingan ham birdek qoida buzadi, agar bu borada "damaschilar" ustunroq bo'lmasa, albat. Shunday ekan, muammo tuzilma yoki ma'lum shaxslarda emas, u ko'proq jamiyatning o'zida. Biz madaniyatdan yiroqlashib boryapmiz. Kattalar-ku mayli, madaniyatni yoshlarga qanday o'rgatish, ishni nima bilan boshlashni bilimayotgandekmiz. Yo'l harakatidagi madaniyat - bu shunchaki muammo atalmish muz qoyasining suv yuzasidagi qismi.

Asqar BAROTOV.

Mintaqada muqobili yo'q korxonalar

"Urgut" erkin iqtisodiy zonasining Nurobod tumanidagi Sazag'on massivida mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi "Shyolkovo Agroxim - O'zbekiston" Rossiya xorijiy korxonasi o'simliklarni himoya qilish kimyoviy vositalari ishlab chiqarish zavodi samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Xorijiy korxonalar Rossiya Federatsiyasining Moskva viloyatida joylashgan "Shyolkovo Agroxim" aksiyadorlik jamiyati ta'sischi sifatida 2017-yilda tashkil etilgan. Zavod qurilishi esa 2018-yilda boshlanib, o'tgan yil to'rtinchi chorakda o'z faoliyatini boshlagan. — Mazkur loyihaning umumiy qiymati 31 million AQSH dollari miqdorida bo'lib, zamonaviy texnologiyalar asosida o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalari ishlab chiqarishga qaratilgan, — deydi "Shyolkovo Agroxim - O'zbekiston" Rossiya xorijiy korxonasi bosh direktori vazifasini bajaruvchi Sherzod Abduhatov. — Zavod qurilishi uchun Nurobod tumani Sazag'on massivining cho'l va tog'oldi hududidan 5,3 gektar yer maydoni ajratilgandi. Bu yerda zavodning barcha ma'muriy va ishlab chiqarish sexi binolari, toza ichimlik suvi inshooti va boshqa yordamchi binolar qurildi. Ayni paytda zavodda tamoman yangi komponentlarga ega bo'lgan, o'zgacha shakl va ko'rinishdagi, O'zbekiston Respublikasi Davlat kimyo komissiyasi tomonidan mamlakatimiz qishloq xo'jaligi ekinlariga qo'llash uchun ruxsat etilgan 50 ga yaqin o'simliklarni himoya qilish kimyoviy vositalari ishlab chiqarilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerak, haliga qadar bunday innovatsion mahsulotlarning muqobili O'zbekiston va yaqin xorijiy mamlakatlarda mavjud emas edi. Korxonalarimiz qishloq xo'jaligida o'simliklarni himoya qilish kimyoviy vositalariga bo'lgan ehtiyojni to'la qondirish imkoniyatiga ega. Ammo hozircha klaster va fermerlar, qishloq xo'jalik korxonalar bilan shartnoma asosida 20 foizgacha ehtiyoj bizning mahsulotlarimiz evaziga qoplanmoqda. Birgina joriy yilning birinchi choragida 8 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, buyurtmachilarga yetkazib berildi. Mahsulotlarni nafaqat ichki bozorda

sotish, balki qo'shni mamlakatlarga ham eksport qilish ko'zda tutilgan. Korxonada kelgusida mahsulot turlari va salmog'ini yanada oshirish, 2025-yildan boshlab esa 10 turdagi kimyoviy o'g'it ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Bu o'g'itlar o'simliklarni bargidan oziqlantirishga mo'ljallangan bo'lib, ekinning turli kasalliklarga chalinishi, hasharot va zararkunandalar tarqalishining oldini ham oladi. Zavod qoshida eng zamonaviy nanotexnologiyalar bilan jihozlangan laboratoriya tashkil etilgan. Bu yerda viloyatdagi oliy o'quv yurtlarining o'simliklar himoyasi, agrotexnologiyalari va oziq-ovqat xavfsizligi yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan yuqori bosqich talabalari, aspirantlar, tadqiqotchilar va doktorantlar tajriba-sinov, ilmiy izlanishlar olib borishi uchun sharoit yaratilgan. Onlayn tartibda "Shyolkovo Agroxim" aksiyadorlik jamiyati ilmiy markazining o'simliklarni kimyoviy himoya qilish masalalari bilan shug'ullanuvchi yetakchi olimlari bilan amaliy muloqotlar uyushtiriladi. Yaqin orada zavod qoshida o'simliklarni himoya qilish kimyoviy vositalarini qadoqlash idishlari ishlab chiqaradigan korxonada hamda yorliqlar tayyorlash sexlari tashkil etiladi. Ayni paytda bu mahsulotlar boshqa korxonalardan olinmoqda. Zavoddagi ishlab chiqarish jarayonlari eng so'nggi rusumdagi avtomatik uskuna va texnologiyalarga asoslangan. Ularni 100 nafarga yaqin mahalliy mutaxassislar boshqarmoqda. E'tiborlisi, zavod ishga tushishi bilan Nurobod tumanining Te-paqul va Sazag'on mahallasining ko'plab fuqarolari doimiy ish bilan ta'minlandi.

G'.HASANOV.



25-may kuni soat 18:00 da Samarqand shahridagi "Mo'jiza" amfiteatrida "Bahodir Yalangto'sh" badiiy filmi premyerasi bo'ladi.

26-may kuni Registon maydonida joriy yilda yurtimiz mezbonlik qiladigan futzal bo'yicha jahon chempionatiga qur'a tashlash marosimi o'tkaziladi.



Gumon qilinuvchi aybsizligini isbotlashi shart emas

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ijtimoiy adolat va birdamlik printsiplari joriy etilib, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

Xususan, inson manfaati har narsadan ustun qo'yilishi e'tirof etildi hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilandi. Bular inson sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizligi, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emasligi, inson va davlat organlari o'rtasida yuzaga keladigan noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi, huquqiy ta'sir choralarini qonuniy maqsadga erishish uchun yetarli va mutanosib bo'lishi kerakligi va boshqalarda o'z aksini topdi.

Shuningdek, insonning shaxsiy huquqlari va erkinliklari kafolati eng ilg'or xalqaro standartlarga muvofiq kuchaytirildi. Jumladan, Konstitutsiyamizda hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emasligi, hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yilishi hamda shaxs sudning qarorisiz qirg' sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi qat'iy belgilandi.

Bundan tashqari, shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi Konstitutsiya doirasida mustahkamlandi.

Bu kabi normalar shaxsning erkinligini cheklash bilan bog'liq har qanday harakat faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi shartligini bildirib, tergov va surishtiruv organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish yoki qamoqda saqlashga yo'l qo'yimaslikka qaratilgan.

Konstitutsiyada shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi kerakligi ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik, sukut saqlash huquqi berildi. Ya'ni, xalqaro e'tirof etilgan «Miranda qoidasi» fuqarolarning o'z huquqlarini himoya qilishning zamonaviy usuli sifatida Asosiy qonunda o'z ifodasini topdi.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerakligi qayd etilgan. Mazkur norma to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qoida bo'lib, tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta'minlaydi hamda shaxsni asossiz ravishda javobgarlikka tortilishdan himoya qiladi.

Qolaversa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emasligi mustahkamlandi, hech kim o'ziga va yaqin

qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilandi. Bu qoidalar jinoyi ta'qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim va turli tahdidlar o'tkazish, uning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish kabi boshqa noqonuniy usullar qo'llanishining oldini oladi.

Yana bir muhim norma — agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi kafolatlandi. Bu hol jinoyat bo'yicha haqiqatni aniqlash, shuningdek, aybsiz insonlarning javobgarlikka tortilishining oldini olishga, ayni paytda jinoyat sodir etgan haqiqiy aybdor shaxs yoki shaxslarni aniqlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, insonning ajralmas huquqlardan biri o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqidir. Bu huquq umume'tirof etilgan xalqaro huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topgan. Shu norma Konstitutsiyamizning 55-moddasida ham belgilanib, har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli ekanligi e'tirof etildi.

Ushbu qoidaning mazmun-mohiyati shundaki, fuqaro o'z buzilgan huquq va erkinliklarini o'zgarlar huquqlarini buzgan holda, mustaqil himoya qilish huquqiga ega. Bunda fuqaro tomonidan o'zini himoya qilishda qo'llaniladigan usullar yoki choralar qonunchilik hujjatlarda taqiqlanmagan bo'lishi lozim.

Shuningdek, fuqaro O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqliligi belgilangan. Bu fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasini nafaqat milliy qonunchilikda belgilangan normalar, balki xalqaro huquq asosida ham himoyalaydigan ta'minlashning huquqiy kafolatidir.

Bundan tashqari, shaxsga davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lgandan so'ng xalqaro organlarga murojaat etish huquqining berilganligi O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasida zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarini samarali bajarishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ushbu qoidalar inson huquqlari ustuvorligini ta'minlaydi, davlat idoralarning o'z vazifalarini inson huquqlariga rioya qilgan holda amalga oshirish, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat munosabati shakllanishiga xizmat qiladi.

Sherzod TO'XTASHEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Institutning Narpaydagi fakultetida..

Samarqand davlat chet tillar institutining Narpay xorijiy tillar fakulteti 2021-yilda tashkil etilgan bo'lib, ikki yo'nalishda talabalar qabul qilingan. Bugun fakultetda xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) hamda maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) yo'nalishlarida 210 nafar talaba mam-lakatimizning turli joylaridan kelib ta'lim olmoqda.

- Talabalarning 158 nafari ijarada turadi, 52 nafari uyidan qatnaydi, - deydi Narpay xorijiy tillar fakulteti dekani Husniddin Mamaniyozov. - Talabalarning 21 nafari narpaylik, ba'zilarining uyi yaqin bo'lganidan piyoda keladi.

Fakultet tumandagi Dedan mahallasida joylashgan Narpay xizmat ko'rsatish texnikumi binosida ochilgan. Hozircha binoning yarmi fakultetga berilgan. Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan binoning issiqlik tizimi, ya'ni isitish batareyalari va qozonxonalar yangilangan. Isitish qozonlari ko'mirga moslashgani uchun qishda muammo bo'lmaydi. Binoda oshxona bo'lmasa-da, kichikroq bufet mavjud.

- Texnikum hovlisida yotoqxona uchun yer bor, ammo qurilgani yo'q, - dedi fakultet dekani. - Haligacha talabalar turarjoyi muammo bo'lib turibdi. Shu sababli uzoq viloyatlardan kelgan talabalarimiz mahalladagi xonadonlarda ijarada turadi. Ularga har oyda 150 ming so'mdan ijara puli beriladi. Bundan tashqari, faqat "5" bahoga



o'qigan talabalarga stipendiyasidan tashqari yana 103576 so'm to'lanadi. Talaba xoh davlat grantida, xoh to'lov-kontrakt asosida o'qisin, u a'lo bahoda o'qiyotgan bo'lsagina ushbu imtiyozdan foydalana oladi.

Fakultet talabalari kredit-modul tizimida



o'qitilmoqda. Ular o'quv darsliklari va elektron darsliklar bilan to'liq ta'minlangan.

- Ingliz tili o'qituvchilarimizning barchasi S1 darajasida xalqaro va milliy sertifikatlariga ega, - deydi H.Mamaniyozov. - Talabalarimizning ham natijasi yomon emas, ikki nafari S1, 52 nafari B2, 9 nafari B1 darajasida ingliz tilini bilish sertifikatlarini qo'lga kiritgan. Ayrim talabalarimiz darsdan keyin maktab, bog'cha, o'quv markazlarida dars beradi. Ayniqsa, 3-bosqich talabamiz Dilshod Sultonovning yutuqlari maqtovg'a arziqli, u bugun yoshlarga ingliz tilidan onlayn dars beryapti.

- Qashqadaryo viloyatining Koson tumani-

dagi o'quv markazida bolalarga ingliz tilidan dars beraman. Bo'sh paytim deyarli bo'lmaydi, har bir vaqtimdan unumli foydalanaman.

- Ingliz tilini bilish bo'yicha S1 darajada sertifikatim bor, - deydi yana bir talaba Xurshid Mo'minov. - Ikkinchi smenada o'qiganim bois tushgacha tumandagi 11-umumiy o'rta ta'lim maktabida dars beraman. Shuningdek, repertorlik ham qilaman. O'zim andijonlikman, uzoq viloyatdan bo'lsam ham uyimdan pul olmayman. Ota-onam faqat kontrakt pulimni to'laydi. Narpay tumani Samarqand shahridan uzoq bo'lgani uchun o'qituvchilar asosan Navoiy shahridagi institutlardan jalb etilgan. Ayrimlari o'rindoshlik asosida dars berib keladi.

- Men talabalarga pedagogika-psixologiya fanidan dars beraman, - deydi fakultet o'qituvchisi Hasan Arziqulov. - O'zim ayni kunda "Talabalarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish" mavzusida ilmiy ish qilyapman. Masalan, talabalar har xil sharoitda ulg'aygan bo'lib, ularning hammasi ham o'lim tumanda o'qishni istamasligi mumkin. Shuning uchun yoshlarni o'quv dargohi haqida oldindan ogohlantirish va sharoitlarni tushuntirish kerak. O'qishga kirganlarga ma'lum bir imtiyozlar berish orqali ularda ko'nikma hosil qilish maqsadga muvofiq. Shahr sharoitida yashagan talabalarimiz bizdagi muhitga moslashishiga yordam beryapmiz. Hatto ayrimlari fakultetda ishlab qolish niyati borligini ham aytaypti.

Samarqand davlat chet tillar institutiga qarashli ushbu fakultet o'z oldiga katta maqsadlarni qo'ygan. Ular kelgusida boshqa yo'nalishlarni ochish, xususan, magistratura yo'nalishida ham talabalarni qabul qilishni rejalashtirmoqda.

Xurshida ERNAZAROVA,
"Zarafshon" muxbiri.

BU FAKT!

Statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, 2024-yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalaridan 11 434,3 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 107,6 foizni tashkil etdi.

Dardni davolash emas, kaltaklash kerakmi?

Ayrim holatlar borki, chetdan kuzatgan kishiga shunday ko'rinadi. Chunki muammoga yondashuv odatda bir xil. Yillarki vaziyat o'zgaraydi, o'zgarayotgani uchun ko'rilayotgan chora ham...

YIG'ILISHDAN IQTIBOS

Samarqand tuman 2-sektor hududidagi 53-maktabda hojatxona antisaniyariya holatida, qo'l yuvish joyi tashkil etilmagan.

Jomboy tuman 4-sektor hududidagi 31-maktab hojatxonasidan chiqqanidan so'ng sharoit qilinmaganligi sababli o'quvchilar qo'l yuvmasdan darsga kirmoqda.

Bunday sharoitda bolalar o'rtasida yuqumli va parazitlar kasalliklar kelib chiqmasligiga kim kafolat beradi?

Masala qanchalik jiddiy, bu haqda mutaxassislar gapirgani to'g'ri bo'ladi.

Ammo boshqa nozik jihatlari borki, bunga jamoatchilikning, huquq-tartibot idoralarning e'tibori kerak, bizningcha.

NEGA?

Chunki shu kunlarda ayni masala yuzasidan maktablar jarimaga tortilyapti. Javob bersin-da, deyishga shoshilmang.

Javobgarlikdan oldin bir narsaga aniqlik kiritish zarur, nazarimizda. Nega sanitar holat yozda o'rganilmaydi, jarimaga tortish mantiqsizlik bo'lib qolmasligi uchunmi?

Yozda maktabda bolalar bo'lmasligi "SES"-dagilar ham bilgani uchunmi?

Tabiiyki, kuz-qishdagi ahvol aniq - dirillab turgan muallim bechoradan sanitar holatni talab qilish ikki marta mantiqsizlik.

Demak, eng qulay payt ayni kunlar ekanda-a? Umuman, maqsad ta'lim maskanlarida sanitar holatni joyiga qo'yishmi yoki shu masala bo'yicha jarima undirishmi?

JAVOB IZLAB KO'RAMIZ

Sog'lom aql bilan o'yab ko'rilsa, ta'lim maskanlarida sanitar holat yuqori darajada bo'lishi

shart. Zotan, ertamiz egalari kunning katta qismini shu yerda o'tkazadi.

Lekin maktablarda sanitar holat talab darajasida emasligi uchun nega aynan muallim, mayli, maktab ma'muriyati javob berishi kerak. Axir davlat rahbari "maktab ta'limga javobgar, boshqa ishlar hududiy hokimliklar zimmasidagi vazifa" deb aytmaganmi?

Shunda sanitar holat uchun ta'lim muassasalari mutasaddilarning javobgarlikka tortilayotgani g'ayrioddiy (noqonuniy deyishga til bormaydi) bo'lyaptimi?

TARTIBGA KIM CHAQIRADI?

Bu birgina tuman yoki shaharda kuzatilayotgan holat emas - "xo'roz hamma joyda bir xil qich-qiryapti". Lekin jazo choralarlari noto'g'ri ekanligiga nima uchun ko'z yumilyapti?

Adliya idoralari bizga huquqlari buzilgani uchun muallimlar murojaat qilmagan, deb o'zini chetga olishi mumkin.

Xo'sh, prokuratura organlari-chi, ular ham bu holdan bexabarmiy?

Savol shundaki, maktablarda sanitar holat ta'minlanmagani uchun "RayONO" yoki "Gor-ONO" lar javob berishi kerak emasmi?

Modomiki, ular bu masalaga javob berishmas ekan, ushbu idoralarning ta'lim tashkilotlari infratuzilmasini rivojlantirish bo'limlari nima uchun tuzilgan?

JARIMA QAYERGA KETADI?

Aytishlaricha, sanitar holat yomonligi uchun maktablar bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari miqdorida jarimaga tortilayotgan ekan. Sanoqli ta'lim maskanlarida standart hojatxona borligini hisobga olsak, "o'rmonga o't ketib, ho'lu quruq baravar yonayotganini" tushunish qiyin emas.

Demak, o'rtacha 1,5 million so'mdan hisoblanganda ham bitta tumanda anchagina mablag' to'planadi.

Oxirgi savol, aslida o'zi bajarishi kerak bo'lgan ishni qilmagani uchun maktablar to'layotgan jarima summalarini tuman va shahar hokimliklari (byudjeti)ga tushadimi?

Y.GADOYEV.

Mahallalar faoliyatini rag'batlantirish jamg'armasi tashkil etiladi

Bu Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-maydagi "O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida belgilangan.

Hujjatga ko'ra, yangi jamg'armaning mablag'lari Uyushma va O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamoat fondiga har yili o'tkaziladigan umumxalq xayriya hasharidan tushadigan tushumlarning 10 foizi, tizim tashkilotlarining sof foydasidan 10 foizi, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlarning grantlari, bo'sh turgan mablag'larni

tijorat banklarining depozitlariga joylashtirish, budjet parametrlarining tegishli mablag'lari asosida shakllantiriladi.

Jamg'arma mablag'laridan mahallalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mahalla tizimini rivojlantirish, "Obod va xavfsiz mahalla", "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy

Qonunchilik

etishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlash, "mahalla yettiligi" a'zolarini o'qitish, malakasini oshirish hamda rag'batlantirish uchun foydalaniladi. Jamg'arma hisobidan keksalar va faxriylar, ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan oilalarga moddiy ko'maklashish hamda ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, mahallalarda jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan faollarni rag'batlantirish ham nazarda tutilgan.

Shuningdek, hujjatda 2 oy muddatda "mahalla yettiligi" faoliyatini takomillashtirish yuzasidan taklif va muammolar hamda aholi murojaatlarini qabul qilish uchun 24 soat uzluksiz ishlaydigan yagona "Sall-markaz" faoliyatini yo'lga qo'yish belgilangan.

Umumiy o'rta ta'limda yangicha yondashuvlarni yo'lga qo'yish maqsadida viloyat hokimining tashabbusi bilan oliy ta'lim muassasalari maktablarga birlashtirildi. O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutining bir guruh professor-o'qituvchilari shu topshiriq asosida ish olib bormoqda.

Xususan, jismoniy madaniyat, sport va maktabgacha ta'lim fakulteti professori Jo'raqul Esh-

Ta'lim ham, tarbiya ham o'zgaradi

nazarov va katta o'qituvchi Rasul Shamsiyev bilan Payariq tumanidagi 82-, 88-, 89-umumta'lim maktablarining umumiy ahvoli bilan tanishdik. Maktablar pedagogik jamoasi bilan kelgusi rejalari bo'yicha suhbatlashdik.

Muloqotlarda ta'lim muassasalari pedagog-kadrlarining ilmiy salohiyatini oshirish, ularni metodik qo'llab-quvvatlash hamda ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirish

bo'yicha kelishib olindi. Ta'lim maskanlarida oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish rejalashtirildi.

Bitiruvchi sinf o'quvchilari bilan suhbatda ularni qiynayotgan muammolar o'rganilib, o'quvchilarni o'zlarini qiziqqan soha bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga tayyorlash yuzasidan aniq maqsadli choralari belgilandi.

Shuningdek, institut va maktab o'rtasida fanlarni o'qitish bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish masalasi dolzarbli ta'kidlandi. Maktablar pedagog-o'qituvchilarining salohiyatini diagnostika qilish va mavjud bo'shliqlarni to'ldirish choralari ko'riladigan bo'ldi.

Bundan tashqari, har bir maktabning kutubxona fondi o'rganilib, fakultet tomonidan zarur o'quv, metodik va badiiy adabiyotlar bilan ta'minlashga amaliy ko'mak beriladi.

Sherzod NORMO'MINOV, fakultet dekani.

Kitob javoningizga

"Mungli ko'zlar"

Tog'aymurod Shomurodovni samarqandliklar iqtidorli jurnalist sifatida biladi. Shu vaqtga qadar uning "Jonning huzuri", "Xotinidan qo'rqmaydigan odam", "Osmon qulagan kun", "Zamin farzandi", "Kechikkan uzr" kabi kitoblari nashr etilgan.

Yaqinda ijodkorning "Mungli ko'zlar" kitobi nashr etildi. Kitobda muallifning yigirmaga yaqin hikoyasi, mulohazalari va boshqa tillardan qilgan tarjimalari o'rin olgan. "Non", "Xotira marosi-mi", "O'gay ona", "Opa", "Taqqir tuhfasi", "Unutilgan vasiyat" hikoyalari insoniy munosabatlari, inson irodasining hayot sinovlarida toblanishi zamonodoshlarimiz badiiy qiyofasida aks etsa, "Qalay, to'y zo'r o'tdimi?", "Laqab zamirida kamsitish bor", "Obodonchilik fuqarolar faolligidan boshlanadi", "Ona tilimizga loqayd bo'lmaylik" kabi maqolalarda turmushimizning bugungi kundagi og'riqli masalalari haqida fikr yuritilgan.

Kitobda shuningdek, tabiatning sirli mo'jizalari, afsonaga aylangan tarixiy haqiqatlar to'g'risidagi tarjimalar ham o'rin olgan bo'lib, kitobxon tafakkurini kengaytirishi, o'tmishga oid bilimlarini boyitishi shubhasiz.

Tolib JO'RAYEV.



Kattaqo'rg'on shahri Ingichka qo'rg'onidagi Nurobod mahallasi viloyatning eng chekka hududi hisoblanadi. 2500 nafardan ortiq aholi, shundan 400 nafar yoshlar istiqomat qiladi. Yaqingacha nafaqat bu mahalla, balki butun qo'rg'on aholisi davlat xizmatlaridan foydalanish uchun qariyb 40 kilometr masofani bosib o'tishi kerak bo'lgan.

Davlat xizmatlari endi mahallalarda ko'rsatiladi

Adliya vaziri o'rinbosari X.Meliyev qo'rg'onida bo'lib, hudud infratuzilmasi, aholining yashash sharoiti bilan tanishdi. Jarayonda Nurobod mahallasida aholiga davlat xizmatlaridan oson va qulay foydalanish imkonini beruvchi interfaol infokioska o'rnatildi.

Mazkur qurilma 37 turdagi davlat xizmatlarini ko'rsatishi mumkin. X.Meliyev mahalla yetiligi va fuqarolar bilan muloqot vaqtida uning imkoniyatlari, afzalliklari haqida to'xtaldi. Dav-

lat xizmatlarini aholiga yanada yaqinlashtirishga qaratilgan yangi loyihalar bo'yicha ma'lumotlar berildi.

Adliya vazirligi tomonidan viloyatimizda shu kabi interfaol infokioskalar o'rnatilishi lozim bo'lgan 154 ta mahalla fuqarolar yig'ini ro'yxati shakllantirilgan. Dastlabki bosqichda har bir tuman va shahardan bittadan mahallaga bu uskuna o'rnatilmoqda.

Viloyat adliya boshqarmasi matbuot xizmati.



Keng polosali telekommunikatsiya xizmatlari

sifatini oshirishda yana bir qadam

Viloyatimizda telekommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish, telekommunikatsiya xizmatlari sifatini yaxshilash va turlarini oshirish, qamrovini kengaytirish uchun bosqichma-bosqich zamonaviy va ilg'or texnologiyalar joriy etilmoqda.

Xususan, yaqinda "Huawei" Co.Ltd. kompaniyasining yuqori o'tkazuvchanlik quvvatiga ega "NetEngine 8000" rusumidagi so'nggi avlod marshrutizatori o'rnatildi. Natijada kommutatsiya quvvati

4 Tbit/sekund, uzatish tezligi 906 million paket/sekundga oshirildi.

Ushbu qurilmalar "O'zkomnazorat" inspeksiyasi viloyat hududiy shu'basida hamda "O'zbektelekom" AK Samarqand filiali bilan birgalikda o'rnatilib, ishga tushirildi. Natijada olis va tog'li hududlardagi qishloq aholisining ham zamonaviy telekommunikatsiya xizmatlari - (Triple-play) telefon, yuqori tezlikdagi internet va IPTV dan foydalanishiga imkoniyat yaratildi.

K.HASANOV, hududiy shu'ba mutaxassisi.



Milliy qadriyatlar sayli

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti "Milliy qadriyatlar sayli" festivalini tashkil etdi. Unda institut rahbariyati, professor-o'qituvchilar va talaba-yoshlar qatnashdi.

Samarqand shahridagi Xotira maydonida o'tkazilgan festivalda alla aytish, kashta tikish, urchuqda ip yigirish, kelida bug'doy yanchish, o'sma qo'yish, paxta savalash, qurtoba, yanchimish tayyorlash kabi milliy an'analar namoyish etildi. Talabalar "Zakovat" intellektual o'yinida bilimlarini sinadi. Milliy kurash, arqon tortish, tosh ko'tarish, lanka, chillak, oq terakmi-ko'k terak kabi milliy sport o'yinlari bo'yicha bellashdi.

Rahimjon NORJIGITOV.

"Jom va jomliklar"

Toshkent shahridagi "Fan ziyosi" nashriyotida nurobodlik jurnalist Abdurasul Sattorovning shu nomdagi kitobi nashrdan chiqdi.

Kitobda keyingi yillarda obod bo'layotgan Jom qishlog'i, uning o'tmishi, buguni, samimiy va mehnatkash insonlari haqidagi xotiralar, voqeyi hikoyalari berilgan. Ijodkor kitobda hududdagi Omondara, Tegirmonboshi, Girdiqo'rg'on va Jom mahallalari, bu guzarlarni obod qilishda bosh-qosh bo'lgan, mehnati singgan er ardog'idagi hamqishloqlarining turmushi, ularning urf-odatlarini qalamga olgan.

Jom qishlog'i qadimdan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan, katta karvon yo'llari kesishmasida joylashgan. Bugun Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarini bog'lovchi qishloqda tug'ilib voyaga yetgan, barcha sohalarida bilimli, iqtidorli mutaxassislar mamlakatimiz bo'yab faoliyat olib borib, Vatanimiz ravnaqi uchun o'zining hissasini qo'shyapti. Shu jihatdan ham Jom va jomliklar haqida nafaqat tuman yoki viloyat, balki yurtimizning barcha go'shalarida yaxshi bilishadi. Xususan, ushbu kitobda ham bugun tuman, viloyat markazi hamda poytaxtda yashab ijod qilayotgan taniqli



ijodkorlarning Jom haqidagi xotiralari, ta'rifu tavsiflari o'rin olgan.

Qisqacha qilib aytganda, mamlakatimizda hududi jihatdan eng katta qishloq - Jomning bugungacha bo'lgan tarixi "Jom va jomliklar" kitobida jamlangan.

Sulaymon MARDIYEV.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Toyloq tuman hokimligidan 2009-yil 10-avgustda 491-reestr raqami bilan ro'yxatga olingan "PIRIMQUL BAXODIR SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyati (qisqartirilgan nomi: "PIRIMQUL BAXODIR SERVIS" MCHJ) jamiyat ta'sischilarining 2024-yil 22-fevraldagi 1-sonli yig'ilish bayonomasiga asosan ixlosiy ravishda tugatilmoqda.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha e'tirozlar gazetada e'lon chop etilgach, ikki oy davomida qabul qilinadi.

Jamiyatning pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati Toyloq tumani, Navzandak qishlog'i. Jamiyatning soliq to'laydigan identifikatsion raqami (STIR): 301244938.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasida marhum Amonov Azimjon Asrorovichga (2021-yil 16-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Firdavsiy ko'chasi, 85-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Norov Akmalga (2019-yil 14-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Valixodjayev Farzod Botirovich notarial idorasida marhum Ergashov Muxtorkulga (2023-yil 6-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Valixodjayev Farzod Botirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Saidov Muhiddin Faxridinovichga (2023-yil 21-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda.

Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Asrarov Mardankulga (2023-yil 13-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasida marhum Tuxtayev Sherali Nurmuradovichga (2013-yil 17-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 48-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Xabibov Abdurayimga (2021-yil 6-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Akabirov Madiga (1989-yil 17-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Mamatkulov Sulaymankul Mamatkulovichga (2023-yil 16-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Bar-

no Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Asadov Muxammadga (2015-yil 27-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O'rtashiq mahallasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Hamroqulov Komiljon Kurbonovichga (2022-yil 12-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial

idorasida marhum Akilov Istampulot Mamadaliyevichga (2023-yil 22-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

BEKOR QILINADI Samarqand shahridagi "XAYRULLO XURSHED STROY MARKET" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 306043947) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

"Imkon-Sug'urta" AJ Samarqand viloyat filialidan 2024-yil 26-martda berilgan IS 0333633 blankadagi, 09-068-04867 raqamli sug'urta polisi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Payariq tumanidagi "GAFUROV PARVOZ DALASI" fermer xo'jaligining (STIR: 307258314) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Oqdaryo tumanidagi "ISA AGRO VET APTEKA O'SIMLIKLAR KLINIKASI" oilaviy korxonasi (STIR: 310181435) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

MOTURIDIY

maqbarasi
qayerdaligini
bilasizmi?

Dam olish kunlari Samarqanddagi ba'zi ziyoratgohlarga borib, bir nechta holatlarga guvoh bo'ldim. Hozir ayni turizm mavsumi bo'lgani uchun tarixiy maskanlarda ziyoratchilar ko'p edi. Misol uchun, Hazrati Doniyor, Shohi Zinda, Bibixonim majmuasida nafaqat mahalliy, balki xorijlik sayohatchilar ham anchagina. Asosiy maqsadimiz Samarqandda yotgan ulug'larini ziyorat qilish bo'lgani uchun bu maskanlardan chiqib, Imom Moturidiy, Xo'ja Ahrori Valiy, Bahovuddin Sog'arjij, Mahdumi A'zam ziyoratgohlariga bordik. Afsuski, Imom Moturidiy va Xo'ja Ahrori Valiy ziyoratgohlarida deyarli ziyoratchi uchratmadik.

Shunda o'tgan yili Buxoroga sayohat uchun borganimizda u yerdagi yetti pir ziyoratgohlariga odamlar navbatda turib kirayotgani yodimga tushdi. To'g'ri, ehtimol u yerda ham bunday gavyumlik doimiy ravishda bo'lmas, ammo biz borgan kunlarimiz ham dam olish, yuqorida aytganimday, sayyohlilik mavsumiga to'g'ri kelgandi.

Aytmoqchimaniki, islom dini rivoji uchun katta hissa qo'shgan, butun islom olamiga mashhur allomalar xoki aynan Samarqandda ekanini bugun nafaqat boshqalar, balki samarqandliklar ham yaxshi anglamaydi. Garchi ziyorat ko'ngil xohishi, ruh oromi uchun amalga oshirilsa-da, bu jarayonda inson bevosita tarix bilan qiziqadi, ma'naviy ildizlarimiz nalar bilan oziqlanganiga yana bir karra e'tibor beradi. O'ziga bir nazar tashlaydi, bu hayotda nimalar bilan shug'ullanayotgani-yu nimalarni boy berayotgani haqida mushohada yuritadi. Shu ma'noda ushbu ziyoratgohlarga tashrif kishi ko'nglini poklaydi, ezgu amallar qilishga undaydi. To'g'risi, xayolimda hatto Samarqandda ham yetti pir yo'nalishini tashkil etish kerak emasnikan, degan fikrlar o'tdi. Ammo o'limlar bilan suhbatlashish asosida bu fikrlarim biroz xato ekanligini tushunib yetdim.

PIR TUSHUNCHASI TURKIYLARGA XOS

-Pir tushunchasi faqat turkiy dunyo mamlakatlari ko'proq e'zozlaydigan va ixlos qiladigan tushuncha, - deydi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ziyorat turizmini rivojlantirish ilmiy bo'limi rahbari Barot Amonov. - Ammo butun dunyodagi islom davlatlarida bu tushuncha unchalik shakllanmagan va Imom Buxoriy, Imom Moturidiy kabi allomalarning dinimizga qo'shgan hissasini beqiyosligi bilan ulug'lanadi. Biz ushbu ziyoratgohlarni bir yo'nalishda qilib ularning darajasini qaysidir ma'noda tushirib qo'yishimiz mumkin. Sababi, ularning har biri o'z sohasida ulug' ishlarni amalga oshirgan. Ushbu bobokolonlarimizning merosini, ular amalga oshirgan ishlarni doimiy ravishda targ'ib qilishimiz juda muhim, deb o'ylayman. To'g'ri, bugun xorijda, xususan, islom davlatlarida ziyorat turizmi targ'iboti bo'yicha qator ishlar olib borilyapti. Ammo ushbu targ'iboti tadbirlarida mamlakatimizda tashkil etilgan xalqaro markazlar vakillari taklif etilmayapti. Vaholanki, bugun yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan Imom Buxoriy, Imom Termezij, Imom Moturidiy ilmiy tadqiqot markazlari ushbu allomalar asarlarini tadqiq etish, keng ommaga yetkazish kabi vazifalar bilan shug'ullanadi.



Aytish kerakki, Imom Moturidiy orom topgan Chokardiza qabristonining o'zida 400 ga yaqin Muhammad ismli avliyolar xoki qo'yilgan. Shuningdek, Abu Lays Samarqandiy, Umar Nasafiy, Burhoniddin Marg'inoniy kabi ulug' allomalarimiz qabrlari ham aynan shu yerda. Bu maskan ziyorati kishiga nafaqat ruhiy orom, balki tariximiz, Sa-

marqandda yashab o'tgan olimu ulamolar hayoti haqida ham ko'p bilim beradi.

TARG'IB YANGICHA BO'LISHI KERAK

Butun islom olamiga mashhur ushbu ziyorat maskanida ziyoratchilar kamligi ularning bu haqda bilmasligidanmi yoki moliyaviy sabablar ham bormikan? Bu haqda sayohat tashkil etuvchi firma rahbarlari bilan suhbatlashdik.

- Biz asosan ziyoratchilar talablari asosida ish yuritimiz, - deydi Abbos Hazratqulov. - Misol uchun, Samarqandga borgach, albatta, Registon, Amir Temur maqbarasi yoki shunga o'xshash obidalarini ko'rishni niyat qilgan sayohatchilarga ularni majburlab boshqa yo'nalish belgilay olmaymiz. Tabiiyki, sayohatchilarning Samarqandda bir kun emas, ikki kun qolishi biz uchun ham daromadliroq bo'lar edi. Chunki siz aytgan ziyoratgohlarga borish uchun Samarqandga bir kunlik sayohat kamlik qiladi. Ammo bu mijozlarning o'zlarini hal qilishi kerak bo'lgan tanlovdir. Afsuski, siz aytgan, hatto xorijdan ham ziyoratchilar izlab keladigan, ulug' allomalar qo'nim topgan makonlar yetarlicha targ'ib qilinmayapti, deb o'ylayman. To'g'ri, telekanallarda ular haqida qator ko'rsatuvlar berilyotgan, katta maqolalar chop etilyotgan bo'lishi mumkin. Ammo bugun global tarmoq rivojlangan, odamlar asosan qisqa video ko'rib, qisqa matnlar bilan kifoyalaniq qolayotgan bir paytda ushbu ziyoratgohlar ham o'ziga xos tarzda aholiga namoyish etilishi lozim.

ZIYORAT MARSHRUTLARI KO'P O'ZGARMAGAN

- "Vaqt" xayriya jamoat fondiga qarashli ziyorat turizmi obyektlariga 2023-yil davomida ziyorat turizmi bo'yicha 262 ming nafar xorijiy va 1 million 278 ming nafar mahalliy sayyoh kelgan, - deydi viloyat turizm boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Jasur Rahmonov. - Bunda asosiy tashrif obyektlari sifatida Shohi Zinda ziyoratgohi, Xo'ja Doniyor, Hazrati Hizr masjidi, Hazrati Dovud turizm maskani hamda Ruhobod maqbarasini ko'rish mumkin.

Samarqand viloyatida 147 ta ziyoratgoh va muqaddas qadamjo mavjud. Viloyatimizning turizm salohiyati islom mamlakatlarida keng targ'ib qilinishi natijasida ziyorat maqsadida kelayotgan sayyohlar soni ortmoqda. Joriy yilning dastlabki uch oyi davomida viloyatimizdagi ziyoratgohlarga 150 mingdan ortiq sayyoh tashrif buyurdi.

Ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolarga asosan Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkiya, Turkmaniston kabi davlatlardan sayyohlar kelyapti. Aholisining asosiy qismini musulmonlar tashkil qiluvchi Malayziya, Singapur va Indoneziya davlatlaridan ham ziyorat turizmi yo'nalishida sayyohlarni keng jalb qilish choralari ko'rilmog'da.

Tahlil va hisob-kitoblarga ko'ra, Imom Buxoriy merosiga qiziquvchi ziyoratchilar Indoneziya, Turkiya, Pokiston Malayziya davlatlaridan, Abu Mansur Moturidiy merosiga qiziquvchi ziyoratchilar Hindiston, Turkiya, Pokiston, Bangladeshdan, Xo'ja Ahrori Valiy va Mahdumi A'zam izdoshlari bo'lgan ziyoratchilar Indoneziya, Malayziya, Turkiya, Tatariston va Chechenistondan, Xo'ja Doniyor hamda yahudiylar dini merosiga talabgor ziyoratchilar Isroil, AQSh, Fransiya va Rossiyadan jalb qilish imkoniyati mavjud.

Darvoqe, ushbu maqolani tayyorlash jarayonida saytimizda (Zarnews.uz) ziyoratchilar nisbatan kam bo'lgan, yuqorida nomlari keltirilgan muqaddas qadamjolar rasmlarini, allomalarning hayoti haqida misollar bilan so'rovnomalar ham tashkil etdik. Garchi to'g'ri javoblar soni 50 foizdan ortgani kishini quvontirsa-da, saytimizning asosiy o'quvchilari samarqandliklar ekanini hisobga olsak, bu natija kishini o'ylantirib qo'yadi.

Gulruh MO'MINOVA.

O'ramizda shunday insonlar bor, ular o'zining aql-zakovati, odamiyligi, jonkuyarligi, o'zgalarning shaxsini qadrlay bilishi, zarur paytda beminnat yordamini ayamasligi bilan kishilarning hurmat-e'tiborini qozonadi. Bunday kishilarga nisbatan "daryodil inson", deya ta'rif beriladi. Pastdarg'omlik Evadulla Ziyodullayev ham ana shunday ishi va qalbi daryo insonlar sirasiga kiradi.

Daryodil inson

E.Ziyodullayev 1949-yilning ayni tut pishig'ida Past Darg'om tumanining Gumbaz mahalasida tug'ildi. Otasi Ziyodulla bobo o'qituvchi, onasi Nuriniso aya maktabda kutubxonachi bo'lgani bois, ilmga mehr qo'yib o'sdi. O'rta maktabni bitirgach, Ukrainaning Nejin pedagogika universitetida tahsil oldi. 1971-yilda diplomni qo'lga olgach, ilk ish faoliyatini Past Darg'om tumanidagi 15-maktabda rus tili fani o'qituvchisi sifatida boshladi.

O'qish, izlanish, ilmga chanqoqlik Evadulla akani yanada ko'proq bilim olishga chorladi - o'sha yili Toshkent davlat yuridik universitetiga o'qishga kirdi. Huquqshunos mutaxassisligini egallashi uning keyingi hayot yo'lini belgilab berdi. Dastlab Past Darg'om tumani ijroiya qo'mitasida huquqshunos bo'lib ishga qabul qilindi, so'ngra tuman qishloq xo'jaligi boshqarmasida huquqshunos vazifasida faoliyat yuritdi.

- Inson o'z kasbiga sadoqatli bo'lsa, o'z ishini sevsa, ardoqlasa, elda hurmatga sazovor bo'ladi, - deydi mehnat faxriysi Xurram O'rovov. - Men Evadulla aka bilan ellik yildan buyon baqamti ishlab, yashab kelayotgan bo'lsam, u kishi hayotning bu oddiy, ammo yozilmagan qonuniga qat'iy amal qilishiga guvohman. Evadulla aka kasbiga sadoqatli tufayli obro' topdi, elga tanildi. Muhimi, do'st-qadrdonlariga mehri, yaqinlarini har qanday holatda yo'qlaydi, bag'rikeng inson.

Darhaqiqat, Evadulla Ziyodul-

layevning yaxshi odatlari ko'p. Shulardan yana biri - tashkilotchilik. Shuning uchun 1985-yilda u kishini tuman matbuot tarqatuvchi idorasiga rahbar etib tayinlashdi. Yosh rahbar qisqa vaqt ichida tizimda qator o'zgarishlar qildi, jamoada sog'lom muhitni shakllantirdi. Olti yil davomida tuman markaziy ijroiya qo'mitasi kadrlar bo'limi instruktoriga bo'lib ishlagan chog'ida ham tashabbuskorligi va tashkilotchiligi bilan jamoada o'z o'rnini topdi.

Evadulla aka 1992-yilda davlat nazorat bo'limi boshlig'i lavozimida faoliyat boshladi. Tashkilotchiligi mana shu paytlarda juda qo'l keldi. Tuman ijtimoiy ta'minot bo'limi boshlig'i bo'lib ishlaganida mahalla va qishloqlardagi kam ta'minlangan, iqtisodiy nochor oilalarga yordam berdi. Ko'pning olqishiga sazovor bo'ldi. Yetti yil davomida Past Darg'om va Jomboy tumanlarida davlat soliq inspeksiya boshlig'i lavozimida faoliyat yuritgani esa Evadulla akaning ham iqtisodiyot, ham huquq, ham soliq sohasida katta bilim va ko'nikmaga ega mutaxassis bo'lganini anglatadi.

Insonni ulug'laydigan, uni elga tanitadigan jihat, shubhasiz, uning mehnati, odamlarga qilgan yaxshiligi. Evadulla aka qayerda, kim bilan ishlamasin, avvalambor, odamlar ko'ngliga yo'l topgan. Buni o'zim pensiyaga chiqquniga qadar Past Darg'om tumani pochta aloqasi bo'limi boshlig'i bo'lib o'n yil davomida ishlagan vaqtida guvohi bo'lganman. Shuning

Yonimizdagi odamlar



uchun ham Evadulla akani nafaqat jamoadagi, balki tizimda ishlayotgan barcha ishchi, mutaxassislar hurmat qilar, maslahatlariga jon deb quloq tutardi.

E.Ziyodullayevning samarali mehnatlari tegishli tashkilotlar tomonidan munosib taqdirlangan. U birinchi darajali yurist unvoni, "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan, bir necha bor faxriy yorliq va esdalik sovg'alar bilan mukofotlangan.

El orasida katta obro'-e'tibor qozongan faxriy yurist oilada ham baxtiyor ota. Turmush o'rtog'i Rahima ona bilan 5 nafar farzandni elga munosib etib tarbiyalagan. Bugun ular xalq xo'jaligining turli sohalarida mehnat qilmoqda. Evadulla aka 15 nevara va 2 nafar chevara davrasida shu kunlarga yetkazganiga shukr qilib yashamoqda.

Darvoqe, 75 yoshni qarshilagan Evadulla aka pensiyada bo'lsa-da, o'zi yashayotgan Gumbaz mahalasining faoli. O'tga mehr qo'ygan otaxon yoshlarga ot sporti va uloq-ko'pkari bo'yicha ham o'z tajribalarini o'rgatib kelmoqda.

Nozim ALIYEV,
"Nuroniy" jamg'armasi Past Darg'om tumani bo'limi raisi.

Texnika fanlari bilimdoni

Bino va inshootlar qurilishida avvalo, mustahkam poydevor zarur. Poydevorning chidamli va ishonchliigi esa uni loyihalashga bog'liq. Bino va inshootlar poydevorini loyihalashda ishonchlilik nazariyasini qo'llagan, ularning chidamlilik darajasini baholashning ilmiy yo'nalishiga birinchilardan bo'lib asos solgan olim, texnika fanlari doktori Zayniddin Sirojiddinov sohada o'ziga xos maktab yaratgan.



Z.Sirojiddinov 1949-yilda Qirg'izistonning Laylak tumanida tug'ilgan. Qirg'izistonning o'zbek farzandi. Ustozning o'rta maktabdan keyingi salkam 60 yillik talabalik, ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyati Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti bilan bog'liq.

U 1966-yilda o'sha yili ochilgan Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutining sanoat va fuqaro qurilishi fakultetiga o'qishga kirib, 1971-yilda tamomlagan. So'ng Samarqanddagi loyiha tashkilotida ish boshlagan. Harbiy xizmatni o'tab kelgach, gruntnlar mexanikasi, asos va poydevorlar kafedrasida o'zining pedagogik faoliyatini boshlagan.

1978-yilda Moskva qurilish injenerlari institutida aspiranturani tugatib, nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan va kafedrada assistent, katta o'qituvchi, dotsent, kafedra mudiri lavozimlarida ishlagan. 1989-yilda Moskva davlat qurilish universitetida doktoranturani o'qib kelgach, 1993-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, texnika fanlari doktori

ilmiy darajasiga ega bo'lgan.

Z.Sirojiddinov binolar va inshootlar poydevorlarini loyihalashda ishonchlilik nazariyasini qo'llagan, ularning chidamlilik darajasini baholashning ilmiy yo'nalishiga asos solgan birinchi olimdir. Uning rahbarligida va maslahatlari bilan bir necha fan nomzodlari, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktorlari (RhD) yetishib chiqqan.

Ustozning ilmiy rahbarligida O'zbekiston Respublikasining davlat dasturlari doirasida ko'plab ilmiy-amaliy loyihalar bajarilgan. Ustoz tomonidan monografiya, o'quv qo'llanma, 150 dan ortiq ilmiy-uslubiy maqolalar chop qilingan va AQSh, Turkiya hamda

boshqa xorijiy davlatlarning nufuzli jurnallarida e'lon qilingan.

Z.Sirojiddinov 2022-yilda Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti kuzatuv kengashi a'zosi etib tayinlangan.

Hozirgi kunda ustoz Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, universitetning qurilish muhandisligi kafedrasida professori sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

Z.Sirojiddinov kadrlar tayyorlashdagi samarali xizmatlari uchun ko'plab ko'krak nishonlari, faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. To'rt nafar farzandning otasi, yetti nabiraning suyuqli bobosi.

Bugun o'zining 75 yoshini nishonlayotgan ustozimizni qutlug' yoshi bilan muborakbod etib, sog'lik-salomatlik, uzoq umr, ilmiy-pedagogik faoliyatlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Dilovar INOYATOV,
SamDAQU dotsenti.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 12 217 nusxada chop etildi. Buyurtma 274. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

Y.MARQAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda